



Konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsipi – jamiyatda barqarorlik omili sifatida

Xasanboyev Shaxbozbek Toshkent davlat yuridik universiteti

“Davlat boshqaruvi huquqi” yo‘nalishi magistri

shaxbozxasanboyev09@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillika erishganidan so‘ng, adolatli, barqaror demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldiga qo‘yib oldi. Ushbu vazifani bajarishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy qonun bo‘lib xizmat qildi. Konstitutsiyada asosiy qonun bo‘lganligi bois uning asosida qonunlar qabul qilinadi. “O‘zbekiston qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilinadi”¹². Konstitutsiya va qonunlarning ustun bo‘lishi jamiyatda barqarorlik ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Chunki barcha davlat organlari va tashkilotlar qabul qilinayotgan normative-huquqiy hujjatlarini avvalo Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq tarzda ishlab chiqib qabul qilinishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida hech qanday vakolatli organ yoki shaxs tomonidan o‘zboshimchalik bilan Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq bo‘lmagan normativ huquqiy hujjat qabul qilinishini oldi olinadi. Idoraviy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga nomuvofiq qabul qilib shaxs yoki idora manfaatiga xizmat qilinishi oldi olinib, fuqaro va davlat manfaatiga mos ravishda ishlashiga olib keladi.

Agarda davlat organlari yoki tashkilotlar qonunlarga zid ravishda qaror qabul qilinsa va fuqaro manfaatiga daxl tug‘dirsa “Har qanday manfaatdor shaxs o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ma‘muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqli”¹³dir. Ma‘muriy sudlarning asosiy vazifalaridan biri ham aynan ma‘muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini ta‘minlash hamda fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Qonunga muvofiq qabul qilinmagan qarorlar sud tomonidan bekor qilinishiga olib keladi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsipi orqali butun mamlakat hududida bir xil qonun qoidalar, tartib o‘rnatilishiga olib keladi. Agar, ushbu prinsip bo‘lmasa qonunlarning birligi yo‘qoladi hamda bir tashkilot ammo mamlakatning turli hududida joylashgan bo‘lsa

¹² Xusanov O.T., Konstitutsiyaviy huquq – Darslik “Adolat” 2022, - B. 83

¹³ “O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi” Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-3527353>



ular chiqargan qarorlari turli ko'rinishda bo'lishiga va jamiyatda beqarorlik muhiti paydo bo'lishiga olib keladi.

Konstitutsiya xalq va davlatning xohish irodasi mahsuli sifatida, ularning manfaatlari, huquq va burchlarini o'zida aks ettirgan. Konstitutsiyaning ustunligi prinsipi orqali vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining xalq va davlat manfaatlariga mos bo'lishi ta'minlanadi.

“Konstitutsiyaning ustunligi tushunchasi huquqiy tizimdagi oliy hokimiyatni konstitutsiyaga yuklaydi. Bu tamoyilni bayon qilish faqat huquqiy normalarning daraja tartibini berishni anglatmaydi. Gap faqat turli xil qadr-qimmat normalarining ziddiyatida emas. Davlat organlarining institutsional tuzilishining ustunligi tamoyili. Prinsipning qamrovi, agar biz uni qayta shakllantirsak, aniq bo'ladi: konstitutsiyaning ustunligi qonun chiqaruvchining quyi darajasi demakdir”¹⁴.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida “O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi” deb o'rnatilib qo'yilgan. O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar o'zaro ierarxiyaga muvofiq amal qiladi va bu ierarxiyaning boshida so'zsiz Konstitutsiya turadi.

Agarda biror norma Konstitutsiyaga muvofiq kelmay qolsa Konstitutsiya normasi to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda yuridik shaxslar ham konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishi imkoniyatiga ega bo'lib: “Agar qonun fuqarolar va yuridik shaxslarning fikricha, ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq kelmasa hamda sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan bo'lsa va sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, ular qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqlidir”¹⁵. Bu orqali mamlakat O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

¹⁴Jutta Limbach “The Concept of the Supremacy of the Constitution” // The Modern Law Review , Jan., 2001, Vol. 64, No. 1 (Jan., 2001), pp. 1-10 // <https://www.jstor.org/stable/1097135>

¹⁵“ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida” Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/acts/-5391934>



“Qonun ustuvorligi shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini mone’liksiz amalga oshirish, o‘z hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari qonunan kafolatlanganligi tufayli tinch, osoyishta, xotirjam, hech qanday tashqi ta’sirlardan, zo‘ravonlik va o‘zboshimchalikdan qo‘rqmay yashash imkoniyatini beradi”¹⁶. Bu adolatli jamiyat o‘rnatilishining hamda fuqarolarning davlatdan rozi bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida qonuni
3. Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi
4. Jutta Limbach “The Concept of the Supremacy of the Constitution”
5. Xusanov O.T., Konstitutsiyaviy huquq – Darslik

¹⁶ Mirakulov M. Konstitutsiya va qonunning ustunligi // https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiya_ustunligi